

# O'zDSMIda «Ikki oyoqli bo'rilar» spektakli namoyish etildi

Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti o'quv teatrida estrada va ommaviy tomoshalar rejissyorligi ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabalari tomonidan Qo'chqor Norqobil qalamiga mansub «Ikki oyoqli bo'rilar» dramasi sahnalashtirildi.

Professor Jahongir Mamatqosimov rejissyorligidagi mazkur spektaklda halollik, mehr-oqibat va sevgi-muhabbat tushunchalari ulug'lanib, ta'magirlik, yolg'onchilik, ko'zbo'yamachilik, birovni haqqiga xiyonat qilish kabi illatlar keskin qoralangan.

Spektakl o'zining qiziqarli syujeti va tomoshabopligi bilan olqishlarga sazovor bo'ldi. O'z navbatida, institut rahbariyati tomonidan rejissyor, aktyor va aktrisalarning mukofotlanishi ta'kidlab o'tildi.







# **O‘zDSMI professor- o‘qituvchilari Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida ishtirok etmoqda**

Samarqand viloyati musiqali drama teatrida «Yangi O‘zbekiston teatri san‘ati: dramaturgiya va rejissyuraning dolzarb masalalari» Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi o‘tkazilmoqda.

Unda O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti professor-o‘qituvchilari, tayanch doktorantlari va mustaqil izlanuvchilari ishtirok etmoqda.

Koferensiya davomida oliygohimiz vakillaridan Omonulla Rizayev, Ma‘mur Umarov, Usmon Azim, Qo‘chqor Norqobil, Go‘zal Xoliqulova, Baxtiyor Yakubov, Faxriddin Abduvohidov va boshqalar ma‘ruza qiladi.

Eslatib o‘tamiz, konferensiya 2-dekabr kuni yakuniga yetadi.



